



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2023  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-ракам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

профессор **Д.Х.Асланова**

**Масъул котиб:**

профессор **М.Қ.Пардаев**

**Муҳаррирлар:**

**Ф.А.Сафаров**

**Ш.З.Ўрозов**

**Техник муҳаррир:**

**А.Н.Холиқулов**

**Корректор:**

**С.А.Бабаназарова**

**Саҳифаловчи:**

**Ҳ.Н.Очилова**

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида  
тарқатилади.

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

[samisiservis@mail.ru](mailto:samisiservis@mail.ru)

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти  
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар  
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-  
тика кўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ Самарқанд филиали директори,  
иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Р.Болтабаев** – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва  
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ каф. мудир, и.ф.д., профессор

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ кафедра мудир, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ декани, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ доценти, и.ф.д.

## МУНДАРИЖА

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Саидахрор Саидахмедович Ғуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Учинчи Ренессансни шакллантириш таълим сифатига, таълим сифати педагогинг масъулиятига боғлиқ	5
<b>Зокир Сайфиддинович Артиков, Дамир Улугбекович Хакимов</b> Аҳоли фаровонлиги, ҳаёт даражаси ва сифатини таъминловчи неъматлар, уларнинг турлари, таснифи ва баҳолаш йўллари	10
<b>Зариф Юсупович Аминов</b> Инсон хавфсизлиги тушунчаси ва унинг турлари	16
<b>Шокиржон Шарипжонович Банноев</b> Маҳаллий озиқ-овқат бозорининг ижтимоий-иқтисодий моҳияти ва вазифалари	20
<b>Shahloxon Shavkatovna Sharifova</b> Halol ovqatlanishga doir asosiy kategoriyalar mohiyati va zarurati	25
<b>Акмал Алимжонович Салимов</b> Мамлакат тараққиётини таъминлаш ва уни самарали бошқаришда инсон капиталининг ўрни	31
<b>Ziyobidin Shaminovich Suvonov, Mavluda Shuxratjon qizi Shuxratjonova</b> Halol oziq-ovqat sanoati va uni O‘zbekistonda rivojlantirish istiqbollari	37
<b>ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Нозир Алиевич Ибрагимов</b> Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва худуднинг инвестицион жозибадорлигини ошириш – тараққиёт гарови	42
<b>Шухрат Маъруфжонович Исломов, Нодира Абдуллаевна Эшқувватова</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида меҳнат ресурсларининг фаол бандлик сиёсати	46
<b>Sardorbek Isroiljon o‘g‘li Qodirov</b> O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tahlili	51
<b>Зарина Ҳусановна Рафиева</b> Рақамли технологиялар орқали банк-молия хизматлари самарадорлигини ошириш йўллари	57
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Рўзибой Нормухаматов, Акрам Джуракулович Ғафуров</b> Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлашнинг илмий асосларини билиш – нобудгарчиликни камайтиришнинг муҳим омилidir	63
<b>Умар Худайбердиев, Нилуфар Зиябаевна Юлдашова</b> Ўзбекистонда деҳқончилик маҳсулотларини етиштириш ва унинг муаммолари	65
<b>Раънохон Махмудовна Каримжанова</b> Наманган вилоятида қандолат маҳсулотлари бозорининг ривожланиш тенденциялари	68
<b>Музаффар Мусаевич Усмонов</b> К вопросам развития кооперации в плодоовощном секторе Узбекистана	72

13. Саталкина Е.В. Локальные рынки продовольственных товаров: инфраструктура и классификация// Ж. Налоги. Инвестиции. Капитал. – М.: № 5, 2007. - С. 52-53.
14. Иватов И. Развитие дехканского рынка в Узбекистане. – Тошкент: Фан, 1994. – 112 с.
15. Дехқонов М. Дехқон бозорларида товарлар нарх-навоси ўзгаришини эконометрик тадқиқоти: Иқтисод фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ФА Кибернетика ИИЧБ, 2001. – 23 б.
16. Происхождение слов. <https://lexicography.online/etymology/>

<b>Ш.Банноев</b>	<b>Sh.Bannoev</b>
<b>Функции и социально-экономическая сущность локального продовольственного рынка</b>	<b>Functions and socio-economic essence of the local food market</b>
<p><b>Аннотация:</b> В статье произведена группировка исследований раскрывающие сущность локального продовольственного рынка и обобщены современные подходы. Разработано усовершенствованное авторское определение локального продовольственного рынка. Проведена сегментация и определены иерархические уровни исходя из функций локального продовольственного рынка. Разработаны научные выводы и практические рекомендации по реализации мер комплексного характера на локальном продовольственном рынке.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> регион, региональная экономика, региональный рынок, локальный продовольственный рынок, социально-экономический, население, территория.</p>	<p><b>Abstract:</b> The article presents a grouping of studies revealing the essence of the local food market and summarizes modern approaches. An improved author's definition of the local food market has been developed. Segmentation was carried out and hierarchical levels were determined based on the functions of the local food market. Scientific conclusions and practical recommendations on the implementation of complex measures in the local food market have been developed.</p> <p><b>Keywords:</b> region, regional economy, regional market, local food market, socio-economic, population, territory.</p>

**Shahloxon Shavkatovna Sharifova** – Buxoro davlat universiteti PhD tayanch doktoranti

### HALOL OVQATLANISHGA DOIR ASOSIY KATEGORIYALAR MOHIYATI VA ZARURATI

<p><b>Annotatsiya.</b> Mazkur maqolada halol ovqatlanishga doir tushunchalar ilmiy manbalarga tayanilgan holda, xorijiy tajribalar asosida yoritib berilgan. Unda halol turizm, musulmon sayyohlar hamda halol sertifikatiga haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, halol oziq-ovqat sanoati, musulmon aholining birlamchi ehtiyoji bo'lmish halol ovqatlanishda eng ko'p ishlatiladigan atamalar mazmun mohiyati ilmiy tadqiq etilgan hamda amaliyotda ulardan to'g'ri foydalanish uchun tavsiyalar berilgan. Musulmonlar o'zlarining taomlarini tanlashda oziq-ovqatning halol bo'lish sharti uchun zarur tamoyillar ko'rsatilgan.</p> <p><b>Kalit so'zlar:</b> halol sertifikatiga, ziyorat turizmi, musulmon sayyohlar, halol, harom, mashbuh, makruh, zabaha.</p>
---

**Kirish.** Oziq-ovqat sanoati, boshqa har qanday sanoat singari, iste'molchilarning talab va ehtiyojlariga javob beradi. Dunyo bo'ylab odamlar endi oziq-ovqat, sog'liq va ovqatlanish haqida ko'proq bilishadi. Ular tarkibida kaloriya, xolesterin, yog' va natriy kam miqdorda bo'lgan foydali ovqatlarni iste'mol qilishga qiziqishadi. Ko'p insonlar oziq-ovqat mahsulotlarini organik yo'l bilan ya'ni, sintetik pestitsidlar va boshqa tabiiy bo'lmagan kimyoviy moddalardan xoli bo'lishi tarafdoridirlar. Jamiyati etnik va diniy xilma-xillikka xayrixoh bo'lgan bugungi kundagi ko'plab mamlakatlar (AQSH, Kanada, Yevropa davlatlari, Osiyo hamda Markaziy Osiyo davlatlari) xitoylik, yapon, italyan, hind, meksikalik, Yettinchi kun adventistlari (protestanlar oqimiga mansub), vegetarian, yahudiy va musulmon singari turli xil guruhlariga mos mahsulotlar tayyorlash uchun oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini moslashtirmoqdalar.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mastercard kompaniyasi hamda CrescentRating halol sayohat konsulligi tomonidan ishlab chiqilgan Global Muslim Travel Index (GMTI) 2017-ma'lumotlariga ko'ra Musulmon sayyohlar sarflari 2020-yilga borib 220 milliard AQSH dollariga ko'tarilishi kutilib, musulmon sayyohlar soni esa 2016-yildagi 121 milliondan 156 millionga oshishi prognoz qilingan edi. Butun dunyoda ro'y bergan global pandemiya bu ko'rsatkichlarni sezilarli darajada kamaytirdi.

Halol turizmi bozorning o'sib borayotgan segmenti bo'lib, musulmon sayyohlar ovqatlanish, kiyim-kechak yoki marosimlar bo'yicha o'z ehtiyojlarini qondiradigan joylarni qidirmoqdalar. Arab tilidan tarjima qilingan "halol" islom ta'limotiga ko'ra ruxsat etilgan degan ma'noni anglatadi. Spirtli ichimliklar, cho'chqa go'shti, yalang'ochlik va qimor o'yinlari taqiqlangan. Halol turizm – bu oilaviy hordiq chiqarish, hamyonbop turar joylarda tunab, sifatli, ozoda ovqatlanish shoxobchalarida taomlanish. Kamchiqimlikni xush ko'ruvchi va isrofdan o'zini tiyadigan kishilar uchun yaratilgan xizmatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-6165-sonli Farmonining asosiy maqsadi: “xalqaro turistik va turistik muhitni yaratish, ... sayyohlik mahsulotlarini keng targ'ib qilish, shuningdek, sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatida mamlakatimiz imidjini mustahkamlash”, deb belgilab qo'yildi. Farmonda ziyorat turizmi segmentining ehtiyojlarini qamrab olishga alohida diqqat qaratilgan. Bu qatlamning halol ovqatlanishga bo'lgan ehtiyoji esa birlamchi bo'lib hisoblanadi. Nafaqat xorijdan tashrif buyurayotgan musulmon sayyohlar, balki yurtimizda istiqomat qilayotgan aholining aksar qismi oziq-ovqat mahsulotlarining pokligiga asosiy masala sifatida qaraydi. O'zbekistonda 2017-yildan beri oziq-ovqat mahsulotlariga “Halol” standartini joriy etish amaliyoti qo'llanib kelinmoqda. Lekin shuga qaramay, bizning yurtimizda Malayziya va Indoneziya davlatlari singari umumiy ovqatlanish tarmoqlarida “Halol” sertifikatini ko'rish odatiy holga aylanmagan, boshqacha qilib aytganda, bu sertifikat mamlakatimizda keng miqyosda ommalashmagan. Buning asosiy sababi halol ovqat tushunchasi yetarli darajadi ilmiy tadqiq etilmagani deb hisoblaymiz. Joriy maqolada halol ovqatlanishga doir atamalarning diniy hamda mentalitet nuqtayi nazaridan, xorijiy manbalarni o'rgangan holda ta'rif berishga harakat qilindi.


**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda qo'llanilgan metodologiya mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish va ularni tahlil qilishga asoslandi. Ushbu sohani o'rganishga bag'ishlangan ma'ruzalar, konferensiya materiallari, internet nashrlari va jurnallar, shuningdek mavzu bo'yicha yangi adabiyotlar va istiqbolli loyiha ma'lumotlari o'rganilib, tahlil, sintez, tanqidiy fikrlash, umumlashtirish kabi usullar qo'llanildi.

**Tahlil va natijalar.** Islom dunyodagi ikkinchi eng yirik, shuningdek, eng tez rivojlanayotgan din bo'lib, bugungi kunda yer kurrasida yashovchi 1,9 mlrdan ziyod aholi ayni shu dinga mansubdir. Musulmon aholisi 2030-yilga borib 2,2mlrd kishini tashkil qilishi taxmin qilinmoqda (the Pew Research Center's Forum on Religion & Public Life). Islom shunchaki marosim va urf-odatlar dini emas balki u yashash tarzi demakdir. Musulmonning hayotini qonun-qoidalar va odob-axloq boshqaradi. Islomda ovqatlanish boshqa ibodatlar singari Allohga sig'inish (iymon keltirish) masalasi hisoblanadi. Musulmonlar Islomiy ovqatlanish dasturi va me'yoriga javob beradigan ovqatlar **halol** (qonuniy yoki ruxsat etilgan) deb nomlanadi. Musulmonlar yaxshi sifatga ega halol oziq-ovqatlarni iste'mol qilishga buyurilganlar. Faqat halol ovqatni iste'mol qilish ularning diniy burchidir. Musulmon bo'lmaganlar uchun halol oziq-ovqat ko'pincha eng yuqori sifat standartlariga erishish maxsus tanlangan va tegishli tarzda qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari deb qabul qilinadi.

Pandemiya sayohat sektoriga katta ta'sir ko'rsatgani sababli, 2020-yilda musulmonlar tashriflari soni 42 millionga kamaydi. Ushbu sayohatlarning 90% 2020-yilning birinchi choragida ko'pchilik davlatlar chegaralarini yopgunga qadar amalga oshirilgan. 2023 yilga borib musulmon sayohat bozori 2019-yilgi ko'rsatkichga nisbatan 80 foizgacha tiklanadi.

Ta'rifga ko'ra, halol musulmonlarga iste'mol qilishi taqiqlangan har qanday tarkibiy qismlardan xoli bo'lgan ovqatlardir. Qur'oni Karim (musulmonlarning muqaddas kitobi)ga ko'ra barcha yaxshi va toza oziq-ovqatlardir. Binobarin, deyarli barcha ovqatlar, o'simlik va hayvonot mahsulotlari, halol deb hisoblanadi, faqat Qur'on va Sunnat (Muhammad s.a.v. hayotlari, aytgan so'zlari, ibratlari)da taqiq ostiga olinganlardan tashqari.

Halol oziq-ovqatlar to'g'risida asosiy ko'rsatma Alloh (Yaratgan)dan Muhammad (s.a.v.)ga hamma odamlar amal qilishlari uchun ilohiy kitob Qur'onda keltirilgan. Oziq-ovqat to'g'risidagi talablar hadislarda keltirilgan sunnat orqali tushuntiriladi va amalda qo'llaniladi.



1-rasm. Musulmon sayyohlarning tashriflari yillar kesimida <sup>1</sup>

Oziq-ovqat mahsulotlari turli etnik, ijtimoiy va diniy guruhlarda o‘zaro munosabatning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Barcha odamlar ovqatga alohida diqqat qaratishadi: musulmonlar o‘zlarining taomlari halol; Yahudiylar o‘zlarining ovqatlari kosher; Hindular, buddistlar va boshqa ba’zi guruhlar o‘zlarining ovqatlari vegetarian bo‘lishiga ishonch hosil qilishni xohlashadi.

Musulmonlar o‘zlarining taomlarini tanlashda aniq ko‘rsatmalarga amal qilishadi. Islomda halol (ruxsat etilgan) va harom (taqiqlangan)ga sabab bo‘luvchi quyidagi prinsiplar sanab o‘tiladi: (Al-Qoradaviy, 1984)

- Asosiy tamoyil shundaki, Alloh tomonidan in`om etilgan barcha mavjudotlar, maxsus taqiqlangan bir nechta istisnolardan tashqari, ruxsat etilgandir.

- Halol va harom qilish faqat Allohning huquqidir. Qanchalik taqvodor yoki qudratli bo‘lishidan qat’iy nazar hech qanday odam yo‘q-ki, bu hukmni ozgartirsa.

- Ruxsat etilgan narsalarni taqiqlash va taqiqlangan narsalarga ruxsat berish Allohga shirk keltirmoq kabidir.

- Narsalarni taqiqlashning asosiy sabablari nopokligi va zararli ekanligidir. Musulmon kishidan biror narsa nima uchun yoki qanday qilib harom ekanligini aniq bilishi talab qilinmaydi. Alloh taqiqlagan narsalarning sabablari aniq-ravshan, yoki mavhum bo‘lishi mumkin.

- Ruxsat etilgan narsa kifoya qiladi, taqiqlangan narsa ortiqcha bo‘ladi. Alloh keraksiz yoki muhim bo‘lmagan narsalarni taqiqlagan va ularning o‘rniga yaxshiroq alternativalar bilan ta'minlagan.

- Barchaga noshar’iy narsalar taqiqlangandir. Islom qonunlari universal tarzda barcha irq, qadalar va jinslarga tegishli. Hech kimga bu borada imtiyozli sharoit mavjud emas. Aslida Islomda imtiyozli sinflar mavjud emas; shuning uchun imtiyozli holat(istisno holat) to‘g‘risida savolga o‘rin yo‘q. Ushbu tamoyil faqat musulmonlar orasidagina amal qilib qolmasdan, balki musulmonlar va nomusulmonlar orasidagi munosabatda ham amal qiladi.

### **Oziq-ovqatning ruxsat etilishini tavsiflash uchun beshta asosiy atama qo‘llaniladi:**

**Halol** - joiz va Islom qonunlariga mos degan ma'noni anglatadi. Bu nafaqat go'sht va parrandalarga, shuningdek, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, kosmetika va shaxsiy parvarish mahsulotlariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Bu atama shaxsiy xulq-atvor va jamoat bilan o‘zaro munosabatlarga ham tegishli.

**Harom** - man etilgan. Bu halolning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshisidir.

**Mashbuh** so‘roqli yoki shubhali narsadir, oziq-ovqatda olimlar tomonidan halol yoki haromligi aniqlanmagan tarkibiy komponentlari mavjud bo‘lgan mahsulot.

**Makruh** - bu atama odatda ba’zi bir musulmonlar tomonidan harom bo‘lmasa-da boshqa birovning uni yoqtirmasligi bilan bog‘liq.

**Zabiha** yoki **jabiha** - bu hayvonning so‘yilishi musulmon tamoyillari asosida bo‘lganini bildiradigan atama.

**Halol va harom.** Qur'onning umumiy ko‘rsatmasi shuni anqlatadiki, barcha ovqatlar halol

<sup>1</sup> <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2022.html> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

hisoblanadi, faqat harom deb tilga olinganlaridan tashqari. Barcha ovqatlar Islomning ilohiy kitobi Qur`oni Karimga ko`ra halol qilingan (Shayx Alouddin Mansurning Qur`oni Karimni arab tilidan o`zbek tiliga tarjimasini [2]):

Ey mo`minlar, Biz sizlarga rizq qilib bergan narsalarning halol poklaridan yenglar va agar(chindan) Allohning Ozigagina ibodat qilguchi bo`lsangizlar U zotga shukur qilinglar! (Baqara surasi, 172-oyat)

**Taqiqlarning asosi.** Harom ovqatlar asosan cho`chqa go`shti, spirtli ichimliklar, qon, so`yilishdan oldin o`lgan hayvonlar va so`yilayotganda Allohdan boshqaning ismi aytilgan hayvonlardir. Bunga ifloslangan yoki harom narsalar bilan aralashtirilgan halol narsalar ham kiradi. Umuman, aksariyat musulmonlar mol va parranda go`shtlarini Allohning nomi bilan so`yilmagan bo`lsa harom yoki makruh deb hisoblashadi.

Islom dinida Alloh qudrat manbaidir. Uning sheriklari yo`q. Musulmon bo`lishning birinchi talabi: "Allohdan o`zga iloh yo`q" deb tan olishdir. Shunday qilib hamma narsa faqat Allohga bag`ishlanishi kerak. Bu haqiqat uchun hech qanday to`siq yo`q va hech qanday tushuntirish talab qilinmaydi yoki kerak emas. Taqiqlar Qur`oni Karimda mutlaqo qat`iy etib ko`rsatilgan. Ba`zi olimlar bu taqiqlarni ilmiy asoslar orqali tushuntirib berishga harakat qilganlar [6]:

- O`laksa go`shti va o`lik hayvonlar insonlar iste`moli uchun yaroqsizdir, chunki chirish jarayoni zararli kimyoviy moddalar hosil bo`lishiga olib keladi va bu odamlarga ziyon keltiradi. (Awan, 1988).

- Tanadan chiqqan qon zararli bakteriyalarni, metabolizm mahsulotlarini va toksinlarni o`z ichiga oladi. (Awan, 1988; Hussaini va Sakr, 1983).

- Cho`chqa patogen qurtlarni inson tanasiga kirishi uchun vektor bo`lib xizmat qiladi. Trichinella spiralis va Taenia solium kabi infeksiyalar ham bundan mustasno emas. Cho`chqa yog`i tarkibi yog` kislotasi inson yog`i va bikimyoviy tizimiga nomutanosib hisoblanadi. (Awan, 1988; Hussaini va Sakr, 1983; Sakr, 1993).

- Mast qiluvchi moddalar asab tizimiga zararli hisoblanadi, inson hissiyotlari va hukmlarini buzadi. Ko`p hollarda ular ijtimoiy va oilaviy muammolalar va hatto odamning o`limiga olib keladi. (Al-Qaradaviy, 1984; Awan, 1988).

Ushbu izohlar yetarli bo`lish yoki bo`lmasligidan qat`iy nazar asosiy tamoyil Qur`onda keltirilgan ilohiy da`vat hisoblanadi. Ilohiy kitobda "Sizga taqiqlangan ..." hukmi ostida kelgan taqiqlar musulmon uchun itoat etilishi shart bo`lgan asos bo`lib qoladi.

### **Bugungi sanoatlashgan muhitda yuqoridagi hukmlarning amaliyoti**

- O`laksa go`shti (ajali yetib yoki biron yirtqichning o`ljasi bo`lgan hayvon go`shti) va o`lik(oto`g`ri yoki qiynab so`yilgan) hayvonlar – odatda bunday narsalarni iste`mol qilish inson qadr-qimmatiga tajovuz sifatida tan olinadi, bugungi zamonaviy jamiyatda ehtimol uni hech kim iste`mol qilmaydi. Biroq, muqobil so`yilishdan oldin hayvonlar qandaydir sabablar bilan o`zi o`lish ehtimoli bor (Chaudry, 1992). Ayniqsa bugungi kunda hayvon huquqlarini himoya qilish tashkiloti a`zolari tomonidan jonzoatlarni tok orqali, zaharli gazlar, kimyoviy va biologik vositalar yordamida behush holga keltirib so`yish amaliyoti ilgari surilmoqda. Bunday so`yilgan hayvonlarning go`shti musulmonlar iste`mol qilish uchun mos emas.

- To`g`ri so`yish – hayvonlarni so`yish islomiy qonunlarga qat`iy belgilab qo`yilgan talablar mavjud: hayvon halol turdan, ya`ni qoramol, qo`zichoq va boshqalardan iborat bo`lishi kerak; hayvonni yoshi kata(voyaga yetgan, idrokli) bo`lgan musulmon tomonidan so`yilishi kerak; so`yish vaqtida Alloh nomi zikr etilishi kerak; so`yish hayvonning tomog`ini tezda kesish orqali qonning to`liq oqib ketishiga imkon berib eng tez o`limga olib kelishi kerak.

Ba`zi boshqa shartlar ham borki, ularga rioya qilish talab etiladi. Hayvonlarga yaxshi munosabatda bo`lish, chanqog`ini bosishi uchun suv berish, pichoqning o`tkir bo`lishi shular jumlasidandir. Ushbu shartlar so`yishdan oldin va so`yish paytida hayvonlarga insoniy munosabatda bo`lishni ta`minlaydi. Har qanday yon mahsulotlardan olinadigan ingrediyentlar, shuningdek, musulmonlarning xohishi uchun belgilangan tartibda so`yilgan hayvonlardan olinishi kerak.

- Cho`chqa go`shti - cho`chqa go`shti mahsulotlari, cho`chqa yog`i va ularning yon mahsulotlari yoki ulardan olingan ingrediyentlar musulmonlar iste`mol qilishi qat`iyan taqiqlangan. Cho`chqa go`shtidan halol mahsulotlarga o`tishning o`zaro ta`sirlashuvning barcha

imkoniyatlari oldini olish kerak. Darhaqiqat, Islom dinida taqiq ovqatlanishdan-da kengroq ko‘lamda amal qiladi. Masalan, musulmon kishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri cho‘chqa yoki boshqa harom vositalaridan foyda olishi (jumladan: sotib olish, sotish, ko‘tarish, tashish, so‘yish va boshq.) mumkin emas.

- Qon - oqayotgan qon (suyuq qon) odatda bozorlarda taqdim etilmaydi yoki iste‘mol qilinmaydi, ammo qon va uning ingrediylardan mahsulotlar tarkibida bo‘lishi mumkin. Dindorlar o‘rtasida umumiy kelishuv mavjud, olimlardan qondan qilingan har qanday narsa musulmonlar uchun haromdir deya qayd etib o‘tishgan.

- Spirtli ichimliklar va boshqa mast qiluvchi moddalar - vino, pivo, va b.lar qat‘iyan man etiladi. Tarkibiga spirt qo‘shilgan mahsulotlar ham nopok sanalib musulmonlar iste‘moli uchun yaroqsizdir. Dori vositasi bo‘lmagan va boshqa mast qiluvchi moddalar insonning aqli, sog‘lig‘i va umumiy faoliyati uchun zararli bo‘lgani uchun ham taqiqlangan. Ushbu mahsulotning iste‘molga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki qisman qo‘shilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Biroq, tabiiy spirtning oziq-ovqat tayyorlash jarayoniga ruxsat etilgan ba‘zi istisnolari mavjud.

Oziq-ovqat mahsulotlari halol statusini tatbiq etish hamda unga oid ko‘rsatmalar berishda qulaylik yaratish maqsadida **to‘rt guruhga** bo‘linadi:

1. Go‘шти va parranda go‘шти - bu guruh taqiqlangan bo‘lish uchun sabab bo‘lgan besh shartning to‘rttasini o‘z ichiga oladi. Demak, bu yerda ko‘plab cheklovlar kuzatiladi. Hayvonlar halol bo‘lishi kerak. Cho‘chqani islomiy yo‘l bilan so‘yib, uni halol deb bo‘lmaydi. Hayvonlar Alloh nomi zikr qilinib, aqli raso musulmon tomonidan so‘yilishi kerak. O‘tkir pichoq bilan bir urinishda bo‘yin tomirlari, uyqu arteriyalari, traxeya, qizilo‘ngach kesilib, va qonni butunlay chiqarib tashlash kerak. Islom hayvonlarga insoniy munosabatda bo‘lishga katta ahamiyat beradi, shuning uchun hayvonlarni nimtalash ularning o‘limi to‘liq sodir bo‘lgandan so‘ng bo‘lishi kerak.

2. Baliq va dengiz mahsulotlari - baliq va dengiz mahsulotlarining maqbulligini aniqlash uchun, turli Islom huquqshunosligi maktablarining qoidalarini tushunish, shuningdek, turli mintaqalarda yashovchi musulmonlarning madaniy amaliyotlari bilan tanish bo‘lish kerak. Barcha musulmonlar tangachalik (tanasi tangachalar bilan qoplangan) baliqlarni yeyishli deb qabul qiladilar, ba‘zi guruhdagi insonlar esa tangachasiz baliqlarni qabul qilmaydilar. Mollyuskalar va qisqichbaqasimonlar kabi dengiz mahsulotlar talqini turli musulmon guruhlar doirasida turlicha hukm chiqarishga sabab bo‘ladi. Shuni tushunish kerak-ki, dunyoning mintaqalarida xilma-xil talablar mavjud, misol uchun, dengiz mahsulotlari eksporti.

3. Sut va tuxum - halol hayvonlardan olingan sut va tuxum mahsulotlari ham halol hisoblanadi. Sut manbai sifatida sigir va tuxum manbai sifatida tovuq ustunlik qiladi. Barcha mahsulotlar shu asosga ko‘ra yorliqlanadi. Bu mahsulotlar yana shu kabi boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda ishtirok etadi, pishloq, sariyog‘ va qaymoq, shular jumlasidandir. Pishloqlarning aksariyati turli fermentlar yordamida tayyorlanadi, bu fermentlar halol so‘yilgan hayvonlar yoki mikroorganizmlar yordamida tayyorlanadigan bo‘lsa halol bo‘lishi mumkin. Agarda-ki, fermentlar cho‘chqa yoki boshqa halol bo‘lmagan hayvonlardan go‘шти asosidan olinadigan bo‘lsa musulmonlar uchun harom yoxud mashbuh (shubhali) hisoblanadi.

4. O‘simliklar va sabzavotlar - alkogolli ichimliklar va boshqa mast qiluvchi moddalardan tashqari, odatda halol hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy qayta ishlash korxonalarida sabzavot va go‘shetni bitta zavod va uskunada qayta ishlash mumkin, bu o‘zaro ta‘sirlanish (zararlanish) ehtimolini oshiradi. Sabzavotlarni qayta ishlashda hayvonlardan kelib chiqadigan ma‘lum funksional tarkibiy qismlardan ham foydalanish mumkin, natijada mahsulotlar shubhali bo‘ladi. Shu sababli, o‘simlik oziq-ovqat mahsulotlarining halol holatini saqlab qolish uchun qayta ishlash vositalarini va ishlab chiqarish usullarini diqqat bilan nazorat qilish kerak.

Ushbu muhokamadan ma‘lum bo‘ladiki, ma‘lum bir oziq-ovqat mahsulotining halol yoki harom holatini bir qancha omillar belgilaydi. Bu uning tabiatiga, qanday qayta ishlanishiga va qay yo‘l bilan ega bo‘lishiga bog‘liq. Masalan, cho‘chqadan olingan har qanday mahsulot harom hisoblanadi, chunki materialning o‘zi haromdir. Xuddi shunday, Islomiy marosimlarga ko‘ra so‘yilmagan hayvonning mol go‘шти hamon qabul qilinmaydigan hisoblanadi. Va, albatta, o‘g‘irlangan oziq-ovqat mahsulotlari yoki islom ta‘limotiga mos kelmaydigan vositalar orqali olinadigan har qanday mahsulotlar ham harom bo‘ladi. Zaharli yoki mast qiluvchi oziq-ovqat va ichimliklar ozgina bo‘lsa ham, shubhasiz, haromdir, chunki ular sog‘liq uchun zararli.

Yuqoridagilarga xulosa tarzida, halol “ovqatlanish”ga “inson hayoti, faoliyati uchun zarur bo‘lgan birlamchi ehtiyojlardan biri bo‘lib, uning jismoniy va ruhiy kamoloti zamirida turuvchi asosiy omil” deya tarif berishni lozim tutdik.

**Xulosa va takliflar.** Mahsulotlarning halol yoki harom statusi Qur`oni karimda zikr etilgan va hadislar orqali bizga qadar yetib kelgan sunnat amallarda ta`kidlangan hamda bu Islomiy qoidalarni shariat fatvosi (ahkomi) bilan mustahkamlab qo‘yilgandir. Bugungi davrning zamonaviy ilm-fani esa “halol ovqatlanish”ni faqatgina diniy ibora emasligini yaqqol isbotlab, bu hukmning inson salomatligi, ruhiy va jismoniy kamolotiga qaratilgan asoslari mavjudligini yana bir karra ta`kidlamoqda. Halol kategoriyaning mohiyati hamda uning amaliyotga tatbiq etilishi tamoyillarini bilish hamda unga amal qilish yurtimizda halol restoranlar faoliyatida asosiy dasturil amal bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib restoranlarda halol ovqatlanishni tashkil etish bo‘yicha ushbu turdagi tashkilot xodimlari bilishi zarur bo‘lgan quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish o‘rinli deb bilamiz:

- “Halol” atamasining asl mohiyati va ildizi Islom dinining muqaddas manbaalariga borib taqaladi, halol ovqatlanish korxonalarida bu turdagi xizmatlarni taklif etishda soha mutaxassislari bilan bir qatorda shariat ilmi ulamolari, din peshvolari ko‘rsatma va yo‘riqnomalariga amal qilish maqsadga muvofiqdir;
- Oziq-ovqatning ruxsat etilishini tavsiflash uchun beshta asosiy atama, ya`ni “halol”, “harom”, “makruh”, “mashbuh”, “zabiha” atamaları nafaqat diniy balki ilmiy atama sifatida soha mutaxassislari tomonidan chuqur anglanishi va halol ovqatlanish tizimiga tatbiq etilishi zarurdir;
- Ayni vaqtda kundalik xizmat ko‘rsatish jarayonida yuqoridagi hukmlarning amaliyoti halol ovqatlanish korxonalari personallari tomonidan keng ommaga taqdim etish chora tadbirlari ko‘rilishi lozim, deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. "O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.02.2021 yildagi PF-6165-sonli Farmoni
2. Shayx Alouddin Mansur. Qur`oni azim muxtasar tafsiri. T. 2009: Movarounnahr. 981.
3. Al-Qaradawi, Y. 1984. The Lawful and Prohibited in Islam, The Holy Quran Publishing House, Beirut, Lebanon. Awan, J.A. 1988. Islamic food laws. I. Philosophy of the prohibition of unlawful foods, Sci. Technol. Islam. World, 6(3), 151.
4. Chaudry, M.M.. Islamic food laws: philosophical basis and practical implications, Food Technol., 1992.
5. Mian N. Riaz, Muhammad M. Chaudry Halal food production. 2004. CRC Press LLC
6. <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2022.html>

<p><b>Ш.Шарифова</b></p> <p><b>Суть и необходимость основных категорий халяльной продукции</b></p> <p><b>Аннотация:</b> В этой статье концепции халяльной пищи объясняются на основе научных источников и зарубежного опыта. Она содержит информацию о халяльном туризме, мусульманских туристах и халяльной сертификации. Также было научно исследовано значение наиболее употребляемых терминов в халяльной пищевой промышленности, халяльной пище, которая является первостепенной потребностью мусульманского населения и даны рекомендации по их правильному использованию на практике. Когда мусульмане выбирают себе пищу, указываются необходимые принципы, чтобы пища была халяльной.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> сертификат халяль, паломнический туризм, мусульманские туристы, халяль, харам, машбух, макрух, забиха.</p>	<p><b>Sh.Sharifova</b></p> <p><b>Essence and need for the main categories of halal products</b></p> <p><b>Abstract:</b> In this article, the concepts of halal food are explained based on scientific sources and foreign experience. It contains information about halal tourism, Muslim tourists and halal certification. Also, the meaning of the most used terms in the halal food industry, halal food, which is the primary need of the Muslim population, was scientifically investigated and recommendations were given for their correct use in practice. When Muslims choose their own food, the necessary principles are indicated for the food to be halal.</p> <p><b>Keywords:</b> halal certificate, pilgrim tourism, Muslim tourists, halal, haram, mashbuh, makruh, zabiha.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

9.03.2023 йилда теришга берилди. 22.03.2023 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0016 А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023